

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

YULDASHEVA KAMOLA MIRALIYEVNA

**QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIDA
INNOVATSION JARAYONLARNI BOSHQARISHNI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.13 – Menejment

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) in
Economic Sciences**

Yuldasheva Kamola Miraliyevna

Qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida innovatsion jarayonlarni
boshqarishni takomillashtirish..... 3

Юлдашева Камола Миралиевна

Совершенствование управления инновационными процессами на
предприятиях по производству строительных материалов 25

Yuldasheva Kamola Miralievna

Improvement of management of innovative processes in construction material
production enterprises 49

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works 53

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

YULDASHEVA KAMOLA MIRALIYEVNA

**QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQUARISH KORXONALARIDA
INNOVATSION JARAYONLARNI BOSHQARISHNI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.13 – Menejment

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Iqt4254 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tsue.uz) va "Ziyonet" axborot-ta'lim portali (www.ziyonet.uz) da joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Nurmanov Ulugbek Anorbayevich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Qosimova Dilorom Sobirovna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qahhorov Otabek Siddiqovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Toshkent arxitektura qurilish universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2020.I.16.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "___" _____ soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-01-49, faks: (99871) 239-41-23, e-mail: tdiu@tsue.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining kutubxonasida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-01-49, faks: (99871) 239-41-23, e-mail: tdiu@tsue.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «___» _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil «___» _____ dagi №_____ raqamli reyestr bayonnomasi).

G.K. Abduraxmanova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, i.f.d., professor

O.Dj. Djurabayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, i.f.d., dotsent

Sh.A. Allayarov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon mamlakatlarida eng muhim ijtimoiy masalalardan biri – aholini uy-joy bilan ta'minlash muammosi hisoblanadi. So'nggi tadqiqotlarga ko'ra "aholining har bir nafar kishi hisobiga uy-joy bilan ta'minlanish ko'rsatkichi AQSHda – 70 kv.m, Germaniyada – 39 kv.m, Rossiyada – 25 kv.m, Turkiyada esa – 17 kv.m ni tashkil etmoqda"¹. Tabiiyki, har bir mamlakat ushbu muammoni hal qilish uchun qurilish sanoatini jadal rivojlantirishga alohida ahamiyat bermoqda. Tarmoq rivojida esa qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarini faoliyatini taraqqiy ettirish ham muhim vazifalardan biridir.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasidan ma'lumki, innovatsiyalar davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo'shishda harakatlantiruvchi omil sifatida xizmat etadi. Bugungi kunda innovatsiyalar mamlakatlarni muvaffaqiyatli rivojlanish yo'liga o'tishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan, iqtisodiyotning real sektorida iqtisodiy taraqqiyotga turtki beruvchi kuch sifatida xizmat qilmoqda. Innovatsiyalarni qurilish materiallari sanoatiga faol tatbiq etish orqali uy-joy muammosini hal etish hamda kambag'allik darajasini qisqartirish masalalari ilmiy tadqiq etilmoqda.

O'zbekistonda qurilish ishlari hajmi ortib borgani sari ushbu sohaning eng muhim material yetkazib beruvchi tarmog'i hisoblangan qurilish materiallari ishlab chiqarishga ham ehtiyoj oshib bormoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, so'nggi yillarda qurilish materiallari sanoati mamlakatning ishlab chiqarish va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishi uchun davlat tomonidan yetarli shart-sharoitlar yaratilmoqda, lekin shunga qaramay ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar hajmi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik faoliyatidagi ehtiyojni qondirishga yetarli emas. Bu borada mavjud muammolarning innovatsion yechimlarini ilmiy tadqiq etishga qaratilgan tadqiqotlarga ehtiyoj tug'ilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risidagi Farmonining "Barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash" deb nomlangan 2-bandi "Sanoatning "drayver" sohasini rivojlantirish va hududlarning sanoat salohiyatini to'liq ishga solish" bo'yicha 48-maqсадida "Qurilish materiallarini ishlab chiqarish hajmini 2 baravarga ko'paytirish va yangi turdagi energiya tejamkor materiallarini ishlab chiqishni kengaytirish"² vazifasi alohida belgilab berilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-fevraldagi PQ-4198-son "Qurilish materiallari sanoatini tubdan takomillashtirish va kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-maydagi PQ-4335-son "Qurilish materiallari sanoatini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori, 2022-yil 21-fevraldagi PQ-139-son "Uy-joylar qurilishini va qurilish materiallari sanoatini qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 2022-yil 17-noyabrdagi PQ-425-son "Qurilish loyihalarini amalga oshirishda nazorat mexanizmlarini takomillashtirish, jarayonning ochiqligi va shaffofligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori va mazkur

¹ <https://gidnenuzen.ru>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risidagi PF-158-sonli Farmoni.

tarmoqqa tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Korxonalarda innovatsion jarayonlarni boshqarish masalalari ko'plab xorijlik olimlar tomonidan o'rganilgan. Xususan, Y.Shumpeter, B.Santo, F.Valenta, B.Tviss, P.Druker, L.Vodachek, J.Berkut, P.Doyle, V.Shvandar, L.Szarneski, D.Van Gemert, D.Ashokkumar va boshqa olimlar bu masalalar borasida ilmiy tadqiqotlar olib borishgan³.

MDH mamlakatlari olimlaridan R. Fatxuddinov, V. Medinskiy, L.Koshkin, A.Kiryakov, G.Goldenshteyn, S.Ilenkova, A.Rusinov, R.Minnixanov, M.Xuchek va boshqalarning ilmiy ishlarida korxonalarda innovatsiyalarni boshqarishning ilmiy-nazariy hamda amaliy asoslari tadqiq etilgan⁴.

O'zbekistonda korxonalarni boshqarish, shu jumladan, uning innovatsion faoliyati va boshqaruv tizimini o'rganish bo'yicha N.Yo'ldoshev, R.Gimush, F.Matmurodov, D.Qosimova, B.Toshmurodova, N.Jiyanova, N.Aliyeva, G.Xamdamova, R.Ergashev, S.Xalikov, A.Toshboyev va boshqa olimlar ilmiy tadqiqot olib borganlar⁵. Respublikamizda qurilish materiallari ishlab chiqarish

³ Шумпетер Й. Теория экономического развития / Й. Шумпетер; Пер. с нем. В.С.Автономова, С.Любского, А.Ю.Чепуренко. – М.: Прогресс, 1982. – 456 с. Санто Б. Инновация как средство экономического развития: Учебник /– пер. с венгр. – М.: Прогресс, 2006. Валента Ф. Управление инновациями / Ф. Валента. – М.: Прогресс, 1985. – 178 с. Твисс Б. Управление научно-техническими нововведениями: Пер. с англ. / – М.: Экономика, 1989. 271 с. Drucker, Peter Ferdinand, 1909-Innovation and entrepreneurship. "Perennial Library": Book chamber international, 1992. – p.133. Водачек Л. Стратегия управления инновациями на предприятия: Сокр. пер. со словац.Л. Водачек, О. Водачкова. – М.: Экономика, 1989. – 166 с. Berkhout G. Innovation in a Historical Perspective /G. Berkhout, D. Hartmann, R.Ortt // The Cyclic Nature of Innovation, V.17. – Kidlington: Emerald Group Publishing Limited, Elsevier Ltd., 2007. - P. 7-24. Doyle P. Management: strategy and tactics: Trans. from English / P. Doyle // - St. Petersburg: Peter, 1999. - 560 p. Shvandar V.A. Innovative management / V.A. Shvandar, V.Уа. Gorfinkel. - М.: University. textbook, 2004. -382 p. Czarnecki L., Van Gemert D.A. Innovation in construction materials engineering versus sustainable development // Bulletin of the Polish Academy of Sciences. Technical Sciences. – 2017. – № 6.– 765–771. Ashokkumar D. Study of quality management in construction industry // International Journal of Innovative Research in Science Engineering and Technology. – 2014. – № 1. – p. 36–43.

⁴ Фатхутдинов Р.А. Инновационный менеджмент / Р.А. Фатхутдинов: Учебник для вузов. 5-е изд. – СПб.: Питер, 2005. – 448 с. Кирьяков А. Г., Максимов В.А. Основы инновационного предпринимательства: Учеб. пособие. Ростов н/Д, 2002. 150-155 с. Медынский В.Г. Инновационный менеджмент / В.Г. Медынский. – М.: ИНФРА – М, 2007. – 100 с. Кошкин Л.И. Менеджмент на промышленном предприятии / Л.И. Кошкин, А.Е. Хачатуров, И.С. Булатов. - Л., 2000. - Электронная версия, "Эколайн", 2000 / <http://cci.glasnet.ru/mc/>. Комилов С.Д. Инновационное развитие и условия становления инновационного предпринимательства / С.Д. Комилов // Изв. АН РТ, Сер. экономика. – 2004. №3-4. – С.18-28. Гольдштейн Г. Я. Инновационный менеджмент / Г. Я. Гольдштейн. - Таганрог: ТРТУ, 1998. - 132 с. Ильенкова С. Д. Инновационный менеджмент: учебник / С. Д. Ильенкова, Л.М. Гохберг. – 2-е изд. е., - М, 2004. - 65 с. Русинов А.А. Инновационный потенциал как условие экономического роста региона: монография [Текст] / А.А. Дранаева, Т.В. Кокуйцева, А.А. Русинов; под ред. проф., д.э.н. А.А. Чурсина. — М.: Спектр, 2012. 277 с. Минниханов Р.Н. Инновационный менеджмент в АПК / Р.Н. Минниханов, В.В. Алексеев, Д.И. Файзрахманов, М.А. Сагдиева. – М.: Изд-во МСХА, 2003. – 432 с. Хучек М. Инновация на предприятии и их внедрение / М. Хучек. – М.: Луч, 1992. – 147 с.

⁵ Йўлдошев Н.К. ва бoшқалар. Инновацион менежмент. Дарслик. Т.: ТДИУ, 2012. – 314 б; Гимуш Р. И., Матмuroдoв Ф. М. Инновацион менежмент. Ўқув қўлланма. – Т.: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти, 2008. – 144 б; Qosimova D.S. "Tadbirkorlik va innovatsiyalar". O'quv qo'llanma. T.: "Innovacion rivojlanish" nashriyot manba uyi .240 b.2024 y. Toshmurodova B.Э., Жиянова Н.А. "Инновация фаолиятни

tarmog'ini rivojlantirish hamda uning iqtisodiy muammolarini o'rganishda mamlakatimiz olimlari tomonidan ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Bu borada R.Nurimbetov, U.Nurmanov, Sh.Dexqonov, Sh.Kurbaniyazov, D.Matrizayeva, A.Metyakubov, E.Xaydarova, I.Tursunqulov kabi tadqiqotchilarning ilmiy ishlarini ta'kidlash lozim⁶.

Amalga oshirilgan ushbu tadqiqotlar muhim ilmiy va uslubiy manba bo'lishiga qaramay mamlakatimizda qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarining joriy holati, innovatsion faoliyatni tashkil etish yo'nalishlarini qamrab oluvchi tahlil natijalariga muvofiq korxonalar innovatsion jarayonlarini boshqarishni takomillashtirish, uning samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy muammolar to'la talqin etilmaganligi dissertatsiya ishining dolzarbligini asoslab beradi.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Ushbu dissertatsiya tadqiqoti Toshkent moliya instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga asosan «Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida moliya, sug'urta, bank va boshqaruv tizimini muvofiqlashtirishning ilmiy asoslari» mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida innovatsion jarayonlarni boshqarishni takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

korxonalarda innovatsion jarayonlarni boshqarishning nazariy-uslubiy asoslarini o'rganish;

qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida innovatsiyalar va ularning xususiyatlarini tavsiflash;

innovatsion jarayonlarni boshqarish bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish va mamlakatimizda qo'llash imkoniyatlarini tahlil qilish;

respublikamiz qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida innovatsion jarayonlarni boshqarishning joriy holatini tahlil qilish;

innovatsion jarayonlarni boshqarishga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish;

qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida innovatsion jarayonlarning samaradorligini baholash ko'rsatkichlarini ishlab chiqish;

молиявий рағбатлантириш”. Ўқув қўлланма. – Т.: Iqtisod-Moliya, 2006. -110 б; Aliyeva N.A. Innovatsion menejment usullari asosida pillachilik tarmog'ini boshqarishni takomillashtirish. i.f.f.d (PhD) diss. Toshkent -.2022. Хамдамова Г.А. ва бошқарлар. Инновацион менежмент. Ўқув қўлланма. “Иқтисод-молия”, 2018. -362 б.; Эргашев Р.Х., Халиков С.Р.“Инновацион иқтисодиёт”. Дарслик. -Т.: “Iqtisod-Moliya”, 2019. -396 б.

⁶ Nurimbetov R.I. Qurilish industriyasi infratuzilmasini tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi. Monografiya. TADI. - 2017. 213 b., Nurmanov U.A. Joriy aktivlar tahlili metodologiyasini takomillashtirish («O'zsanoatqurilishmateriallari» uyushmasi misolida) I.f.f.d. DSc avtoref. T.: 2023. - 74 b., Dexqonov Sh.A. Qurilish materiallari sanoati aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv mexanizmi samaradorligini oshirish. Iqt. fanlari bo'yicha PhD Avtoref. Andijon 2021. 55 b; Kurbaniyazov Sh.K. Qurilish materiallari sanoatida korporativ boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini joriy etish samaradorligi: i.f.f.d. avtoref. T.: 2018. -56 b.; Matrizaeva D.Yu. Sanoat korxonalarining iqtisodiy samaradorligini boshqarishni takomillashtirish («O'zsanoatqurilishmateriallari» uyushmasi misolida): i.f.f. d. avtoref. T.: 2021. -61 b.; Мэтякубов А.Дж. Қурилиш материаллари sanoatiga инвестицияларни жалб этишининг бошқариш самарadorлигини ошириш “Ўзқурилиш материаллари” АЖ мисолида, и.ф.ф.д. PhD дисс. -Т.: 2019. 56 б; Xaydarova E.Sh. Qurilish materiallari sanoati korxonalarining innovatsion salohiyatini boshqarish samaradorligini oshirish: i.f.f.d. avtoref. T.: 2024. -56 b., Tursunqulov I.A. Qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida boshqarish mexanizmini takomillashtirish. i.f.f.d. avtoref. T.: 2024. -57 b.

korxonada innovatsion faoliyatini boshqaruv strukturasi takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

qurilish materiallari korxonalarida innovatsion faoliyatni boshqarish strategiyalarni ishlab chiqish bo'yicha takliflar berish.

Tadqiqot obyekti "O'zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasi tarkibidagi "Ohangaronsement" AJ hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida innovatsion jarayonlarni boshqarishni takomillashtirish jarayonida vujudga keladigan tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida ilmiy mushohada, mantiqiy fikrlash, qiyosiy tahlil, anketa-so'rov, SWOT-tahlil, ekonometrik tahlil va prognozlashtirish kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra "innovatsion jarayonlarni boshqarish" tushunchasining iqtisodiy mazmuni yangi g'oyalar, texnologiyalar yoki mahsulotlarni yaratish, amalga oshirish va bozorga chiqarish jarayonini samarali tarzda rejalashtirish, tashkil etish, muvofiqlashtirish va nazorat qilishni o'z ichiga oluvchi boshqaruv faoliyatiga innovatsion faoliyat shartlari hamda natijalarini tavsiflovchi samaradorlik ko'rsatkichlarini tatbiq etish asosida takomillashtirilgan;

"O'zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasi tarkibidagi qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida innovatsion jarayonlarni boshqarishni innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish diversifikatsiyasini ta'minlash uchun korxonada tashkiliy tuzilmasida marketing bo'limi bilan integratsiyalashgan holda "Innovatsiyalar bo'limi"ni tashkil etish orqali takomillashtirish taklifi asoslangan;

"O'zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasi tarkibidagi korxonalarda xodimlarning innovatsion faolligini boshqarish jarayonlarini maxsus va o'zaro bog'liq guruhlarga ajratish asosida amalga oshirilayotgan loyihaning butun muddati davomida "xodimning innovatsion faolligini monitoring qilish" kichik guruhi faoliyatini yo'lga qo'yish orqali takomillashtirish asoslangan;

"O'zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasi tarkibidagi qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni hisobga olgan holda ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar hajmi hamda kelgusi davr xarajatlarining 2028-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida innovatsion jarayonlarni boshqarish bo'yicha o'ziga xos xususiyatlar tizimlashtirilgan;

"O'zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasi tarkibidagi "Ohangaronsement" AJ faoliyati tahlil qilinib, innovatsion jarayonlarni boshqarishning istiqbolli yo'nalishlari asoslangan;

"Ohangaronsement" AJ misolida innovatsion jarayonlarni boshqarishdagi muammolarni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan;

"O'zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasi tarkibidagi qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarining kuchli va zaif jihatlari SWOT tahlil asosida baholangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda foydalanilgan ma'lumotlarning ishonchliligi "O'zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasi va uning tizimidagi korxonalarining davriy hisobot va statistik to'plamlaridan olinganligi, qurilish materiallari ishlab chiqarish tarmog'ini rivojlantirishga qaratilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlarga asoslanganligi, ishda umumtadqiqot usullardan foydalanilganligi, xulosada keltirilgan taklif va tavsiyalarning amalda sinovdan o'tganligi, ularning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida innovatsion jarayonlarni boshqarishni takomillashtirishga oid ilmiy xulosalardan menejment yo'nalishida bajariladigan ishlarda manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati olingan natijalar asosida qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarini faoliyatini rejalashtirish va innovatsion strategiyasini ishlab chiqishda, shuningdek, oliy o'quv yurtlarida "Menejment", "Innovatsion menejment" fanlaridan ma'ruza matni, o'quv qo'llanma va darsliklar tayyorlashda ilmiy manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida innovatsion jarayonlarni boshqarishni takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy-amaliy takliflar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra "innovatsion jarayonlarni boshqarish" tushunchasining iqtisodiy mazmuni yangi g'oyalar, texnologiyalar yoki mahsulotlarni yaratish, amalga oshirish va bozorga chiqarish jarayonini samarali tarzda rejalashtirish, tashkil etish, muvofiqlashtirish va nazorat qilishni o'z ichiga oluvchi boshqaruv faoliyatiga innovatsion faoliyat shartlari hamda natijalarini tavsiflovchi samaradorlik ko'rsatkichlari "O'zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasi tarkibidagi korxonalarining 2024-2030-yillarga mo'ljallangan Innovatsion Strategiyasini ishlab chiqishda foydalanilgan. ("O'zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasining 2024-yil 28-martdagi 07-1/5-11-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifni "O'zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasi tarkibidagi korxonalarda joriy etish orqali innovatsion faoliyat natijalarini tavsiflovchi samaradorlik ko'rsatkichlaridan umumiy foydada innovatsion faoliyatni amalga oshirishdan olingan sof foyda ulushining 2,2 barobar o'sishiga erishilgan;

"O'zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasi tarkibidagi qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida innovatsion jarayonlarni boshqarishni innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish diversifikatsiyasini ta'minlash uchun korxonalar tashkiliy tuzilmasida marketing bo'limi bilan integratsiyalashgan holda "Innovatsiyalar bo'limi"ni tashkil etish orqali takomillashtirish taklifi "O'zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasi tarkibidagi korxonalarining 2024-2030-yillarga mo'ljallangan Innovatsion Strategiyasini ishlab chiqishda foydalanilgan. ("O'zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasining 2024-yil 28-martdagi 07-1/5-11-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifni amaliyotda qo'llash natijasida ichki va tashqi bozordagi talab va taklif o'zgaruvchanligi o'rganilib, mavjud resurslardan samarali foydalangan holda innovatsion loyihalar ishlab chiqish

orqali korxonalarda marketing faoliyati takomillashtirildi va sotuv hajmi 4 foizga oshishiga erishilgan;

“O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi tarkibidagi korxonalarda xodimlarning innovatsion faolligini boshqarish jarayonlarini maxsus va o‘zaro bog‘liq guruhlarga ajratish asosida amalga oshirilayotgan loyihaning butun muddati davomida “xodimning innovatsion faolligini monitoring qilish” kichik guruhi faoliyatini yo‘lga qo‘yish orqali takomillashtirish taklifi “Qurilish materiallari ishlab chiqarish tarmog‘ini rivojlantirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” va dasturini ishlab chiqishda foydalanilgan. (“O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasining 2024-yil 28-martdagi 07-1/5-11-son ma’lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi tarkibidagi korxonalarda innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqarish hajmi 5 foizga qadar oshishiga erishilgan;

“O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi tarkibidagi qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalari rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarni hisobga olgan holda ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar hajmi hamda kelgusi davr xarajatlarining 2028-yilga qadar prognoz ko‘rsatkichlari “Qurilish materiallari ishlab chiqarish tarmog‘ini rivojlantirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” va dasturini ishlab chiqishda foydalanilgan. (“O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasining 2024-yil 28-martdagi 07-1/5-11-son ma’lumotnomasi). Mazkur taklif “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi tarkibidagi korxonalarining strategik rejalari ko‘rsatkichlarining aniqlik va o‘zaro muvofiqlik darajasini oshirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning asosiy ilmiy va amaliy natijalari 5 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma’ruza qilingan va muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy ish, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 2 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Tadqiqot hajmi 122 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiya ishining **kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari hamda obykti va predmeti shakllantirilgan, dissertatsiya ishining oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida innovatsion jarayonlarni boshqarishning nazariy-uslubiy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida korxonalarda innovatsion jarayonlarni tashkil etishning nazariy asoslari, qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoatida innovatsion jarayonlar va ularning o‘ziga xos xususiyatlarining nazariy jihatlari tadqiq etilgan, qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida innovatsion jarayonlarni boshqarish bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajribalar o‘rganilgan.

So‘nggi yillarda dunyodagi eng muhim ijtimoiy masalalardan biri – aholini uy-joy bilan ta‘minlash muammosi hisoblanadi. Qurilish tarmog‘ining barqaror rivojlanishi, aholining sifatli turar joy bilan ta‘minlanishi ushbu soha rivojiga bevosita aloqador qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarining faoliyatini barqaror shartlar asosida rivojlantirish ehtiyojini keltirib chiqarmoqda. Qurilish sanoati har qanday mamlakat iqtisodiyotining muhim tarmog‘i bo‘lib, jahon iqtisodiyotiga katta hissa qo‘shadi va barqaror rivojlanishda muhim rol o‘ynaydi. Biroq qurilish sanoati uzoq vaqtdan beri o‘zgarish va innovatsiyalarga moyilligi past bo‘lgan soha deb hisoblanadi.

Jahon tajribasidan ma‘lumki, innovatsiyalar davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo‘shishda harakatlantiruvchi omil sifatida xizmat etadi. Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishning asosiy vazifalaridan biri iqtisodiy munosabatlarning turli ishtirokchilari faoliyatini axborot bilan ta‘minlash muammosini hal qilishdir. Turli ierarxialarning iqtisodiy tizimlarida innovatsion faoliyat hozirgi vaqtda nazariya va amaliyotning diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. Innovatsion faoliyat bilan bog‘liq masalalar va muammolarni o‘rganish ko‘plab mahalliy va xorijiy iqtisodchilar tomonidan tadqiqotlarga sabab bo‘lmoqda. Dissertatsiya ishida innovatsion faoliyatning asosiy nazariy jihatlari (“innovatsiya”, “innovatsion jarayon”, “innovatsion faoliyat” tushunchalarining mazmun-mohiyati, innovatsion jarayon talqiniga yondashuvlar, innovatsiya nazariyasining rivojlanish masalalari) ko‘rib chiqilgan.

Tadqiqotchi tomonidan “innovatsiya”, “innovatsion jarayon” va “innovatsion faoliyat” tushunchalariga iqtisodchi olimlar tomonidan berilgan ta‘riflar tadqiq etilgan. Innovatsion jarayon tushunchasiga turli xorijiy va mahalliy ilmiy tadqiqotchilar tomonidan berilgan ta‘riflar taqdim etilgan (1-jadval).

Innovatsion jarayon bosqichlari tadqiq etilib, innovatsion jarayonning ITTKI ga yo‘naltirilgan bosqichma-bosqich shakli ba innovatsion jarayonning bozorga yo‘naltirilgan bosqichma-bosqich shakli ilmiy asoslangan. Shuningdek, dissertatsiya ishida innovatsiyalarning tasnifiy guruhlarini taqsimlashda ham turlicha yondashuvlar mavjud. Iqtisodchi-tadqiqotchilar innovatsiyalarning paydo bo‘lish sabablari, qo‘llanish doirasi, bozor ulushini qamrab olish va hokazolarni tavsiflovchi eng muhim belgilarini tasniflash uchun asos qilib oladilar.

Tadqiqotchi tomonidan ilmiy adabiyotlarda turli mualliflar tomonidan taklif etilgan qurilish materiallari sanoati korxonalarini innovatsion rivojlantirishning asosiy tamoyillari tizimlashtirilgan ba amaliy tajribani umumlashtirish asosida

qurilish materiallari sanoatida innovatsiyalarning o'ziga xos xususiyatlari ajratib ko'rsatilgan.

1-jadval

“Innovatsion jarayon” tushunchasiga ilmiy tadqiqotchilar tomonidan berilgan ta’riflar⁷

Muallif	Ta’rif
D.Twiss	“Innovatsion jarayon — yangi jarayonlar, mahsulotlar, tashkiliy tuzilmalar va biznes usullarini izlash, kashf etish, ishlab chiqish, takomillashtirish, ishlab chiqish, tijoratlashtirish. Bu noaniqlik, xavf-xatarni qabul qilish, tekshirish va qayta tekshirish, tajriba va sinov bilan shug‘ullanadi” ⁸ .
B.Santo	“Innovatsion jarayon axborot va uning moddiy shakli ilmiy-tadqiqot ishlaridan ishlab chiqarishga o‘tkazilganda sodir bo‘ladi va bu jarayon natijalari o‘z iste‘molchisini topadi” ⁹
K.Kristensen	“Innovatsion jarayon — mahsulot turlarini yangilash va sifatini yaxshilash, ularni ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish uchun ilmiy tadqiqot va ishlanmalar natijalaridan foydalanishga qaratilgan faoliyat” ¹⁰ .
R.Fatxuddinov	“Innovatsion jarayon — bu strategik marketing, ilmiy-tadqiqot, ishlab chiqarishni tashkiliy va texnologik tayyorlash, innovatsiyalarni ishlab chiqarish va loyihalash, ularni amalga oshirish (yoki innovatsiyaga aylantirish) va boshqa sohalarga tarqatish (diffuziya) jarayoni” ¹¹ .
A. Shmeleva	“Innovatsion jarayon — innovatsion muhit omillari va tashkilotning innovatsion rivojlanishining strategik maqsadlarini hisobga olgan holda innovatsiyalarni muvaffaqiyatli yaratish va ulardan foydalanish uchun korxonaning innovatsion salohiyatini shakllantirish, moslashtirish va joriy etish jarayoni” ¹² .
A.Rusinov	“Innovatsion jarayon tushunchasi innovatsion g‘oyani yakuniy natijaga aylantiradigan (mavjud mahsulot va xizmatlarning yangi va takomillashtirilgan xususiyatlarining paydo bo‘lishi, texnologik liniyalar, korxonalarni boshqarish tizimlari, mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqarish va sotish) tartiblangan harakatlar to‘plamini anglatadi” ¹³ .
N.Yo‘ldoshev	“Innovatsion jarayon innovatsion o‘zgarishlarni tayyorlash va amalga oshirishdan iborat bo‘ladi va yagona bir butunni tashkil qiluvchi o‘zaro bog‘langan pallalardan tashkil topgan” ¹⁴ .
O.Nazarmatov	“Innovatsion jarayon – bu innovatsion loyihalar, g‘oyalar, fikrlarni turli bosqichlarda yaratuvchi subyektlarning o‘zaro manfaatlari natijasida yuzaga keluvchi munosabatlar yig‘indisi” ¹⁵ .
N.Aliyeva	“Innovatsion jarayon ilmiy bilimlarni yangilikka aylantirish jarayoni hisoblanib, innovatsion jarayon bosqichlari fundamental, amaliy tadqiqotlar, ishlanmalar, yangi mahsulotlarni loyihalash, yangi texnologiyalarni ishlab chiqish, mahsulot yoki xizmat ishlab chiqarish, sotish jarayonlaridan iborat” ¹⁶ .

Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda “Innovatsion jarayon – g‘oyalarni yaratish, ularni yangi mahsulot hamda texnologiyalarga aylantirish, iste‘molchilar

⁷ Muallif ishlanmasi.

⁸ Twiss B. Innovation management / B. Twiss. - M.: Economics, 2009. — 272 p.

⁹ Санто Б. Инновация как средство экономического развития / Б. Санто; Пер. с венг. / Общ. ред. и вступ. ст. Б.В. Сазонова. – М.: Прогресс, 1990. – 296 с.

¹⁰ Christensen K. / Solving the problem of innovation in business. How to create a growing business and successfully support its growth / Christensen K. Raynor M. — M.: Alpina Publisher, 2014. — 290 p.

¹¹ Фатхутдинов Р.А. Инновационный менеджмент. 6-е изд., / Р.А. Фатхутдинов -СПб.: 2011.- 448 с.

¹² Шмелева А.С. Повышение эффективности управления инновационными проектами при использовании гибких методологий проектного управления / А.С. Шмелева // Журнал исследований по управлению. – 2021. – Т. 7. – № 2. – С. 30-40.

¹³ Русинов А.А. Инновационный потенциал как условие экономического роста региона: монография[Текст] / А.А. Дранаева, Т.В. Кокуйцева, А.А. Русинов; под ред. проф., д.э.н. А.А. Чурсина. — М.: Спектр, 2012. 277 с.


¹⁴ Yo‘ldoshev N.Q, Mirsaidova Sh.A, Goldman Y.D. Innovatsion menejment. Darslik.- T.:TDIU. 2011. 6-b.

¹⁵ Nazarmatov O.S. To‘qimachilik korxonalarida innovatsion jarayonlarni boshqarishni takomillashtirish. i.f.d. (DcS) diss. Toshkent. 2023. 63-bet

¹⁶ Aliyeva N.A. Innovatsion menejment usullari asosida pillachilik tarmog‘ini boshqarishni takomillashtirish. i.f.f.d (PhD) diss.Toshkent.-2022.-B.15.

talabi asosida sifatni yaxshilash va tijoratlashirishga olib borishning uzluksiz oqimidir” degan xulosaga kelingan.

Qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida innovatsion jarayonlarni boshqarish bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajribalar o‘rganilib, AQSH, Yevropa Ittifoqi davlatlari, Xitoydagi qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida innovatsion jarayonlarni boshqarish mezonlarining qiyosiy tahlili amalga oshirilgan. Innovatsion rivojlanishni strategik boshqarish bo‘yicha ilg‘or tajribalarni aniqlash uchun qurilish materiallari sanoatida dunyo bo‘yicha eng yirik uchta “Saint Gobin” (Fransiya), “Anhui Conch Cement Co. Ltd.” (Xitoy), “Cemex” (Meksika) kompaniyalaridagi innovatsion rivojlanish oltita mezon bo‘yicha qiyosiy tadqiq etilgan (1-rasm).



1-rasm. Xalqaro kompaniyalardagi innovatsion rivojlanish mezonlari¹⁷

Qurilish materiallari sanoati sohasidagi yirik kompaniyalar innovatsion faoliyatini boshqarish bo‘yicha xorijiy tajribani tahlil qilishda quyidagilar aniqlandi: sanoat sektorining innovatsion dinamikasini oshirish davlat organlari va hokimiyat organlarining yordamisiz amalga oshmaydi; innovatsion faoliyatni moliyalashtirish to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalar, soliq imtiyozlari, grantlar va boshqa subsidiyalar (Yaponiya, Xitoy), davlat xaridlari va buyurtmalari (AQSH) venchur investorlarning mablag‘lari (Xitoy) shaklida amalga oshiriladi; ishlab chiqarish korxonalarini, ilmiy va ta’lim muassasalari (AQSH, Yaponiya) o‘rtasida samarali hamkorlik ta’minlangan; innovatsion jarayonlarni jadallashtirish asosi sifatida texnopolislar, ishlab chiqarish klasterlari va texnoparklar tashkil etish yetakchi o‘rinni egallaydi.

Dissertatsiyaning “**Qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida innovatsion jarayonlarni boshqarishning joriy holati tahlili**” deb nomlangan ikkinchi bobida respublikada qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoatida innovatsion jarayonlarning joriy holati tahlil qilingan, qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida innovatsion jarayonlar va ularni boshqarishga ta’sir etuvchi omillar ko‘rib chiqilgan hamda qurilish materiallari sanoati korxonalarining innovatsion faoliyatini boshqarish samaradorligi baholangan.

¹⁷ Muallif ishlanmasi

Qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoati milliy iqtisodiyotning bugungi holati va uni rivojlantirish salohiyatini belgilab beruvchi ustuvor yoʻnalish hisoblanadi. Qurilish sanoati mahsulotlari muhandislik infratuzilmasining rivojlanishini taʼminlab, turli sohalardagi korxonalarining logistika imkoniyatlarini oshirishga xizmat qiladi. Inson hayoti uchun ham, milliy iqtisodiyot rivojlanishi uchun ham zarur boʻlgan uy-joy, sanoat, yoʻl, energetika va boshqa koʻplab obyektlarni barpo etish samaradorligi ham ushbu tarmoq mahsulotlariga bogʻliq (2-jadval).

2-jadval

Oʻzbekiston Respublikasi boʻyicha asosiy iqtisodiy-ijtimoiy koʻrsatkichlar¹⁸

Koʻrsatkichlar	Yillar					2019-yilni 2023-yilga farqi (+ -)
	2019	2020	2021	2022	2023	
YAIM, mlrd.soʻm	532712,5	605514,9	738425,2	896617,9	1066569	+987861,4
Qurilish ishlari hajmi, mld.soʻm	71156,5	88130,3	107492,7	130790,9	149864,1	+78707,6
Qurilish korxonalari soni	37 942	42 923	45 603	48 874	53 050	+15 108
Qurilish sohasida ish bilan bandlar soni, ming kishi	1324,6	1305,6	1350,8	1314,3	1360,7	+36
Sanoat ishlab chiqarish hajmida qurilish materiallari ishlab chiqarishning ulushi, %	5,6	4,9	5,1	5,6	5,9	+0,3

Statistik maʼlumotlarga koʻra mamlakatimizda YAIM da qurilish ishlarining ulushi 2023-yilda 6,2 foizni tashkil qiladi. Sanoat ishlab chiqarish hajmida qurilish materiallari ishlab chiqarish muntazam oʻsishga ega boʻlib, uning ulushi 5,9 foizga yetgan. 2018-2023-yillarda qurilish tarmogʻining oʻsishi jadal surʼatlar bilan amalga oshgan va ushbu koʻrsatkich oʻrganilayotgan iqtisodiyot tarmoqlari ichida eng yuqori oʻsish surʼatiga ega ekanligini bildiradi.

“Oʻzsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi tarkibida ikki yuzga yaqin qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar mavjud boʻlib, ushbu korxonalar tomonidan 2024-yilda 37,2 trln soʻmlik qurilish materiallari ishlab chiqarish rejalashtirilgan. Investitsiya dasturlari doirasida 2024–2026-yillarda qiymati 4,5 mlrd dollarlik 542 ta yangi loyiha amalga oshirish rejalashtirilgan. Mazkur uyushma va uning tarkibidagi korxonalarda tayyor mahsulotlar tarkibi quyidagi jadvalda berilgan (3-jadval).

Sohadagi asosiy yoʻnalishlardan biri sement ishlab chiqarish tarmogʻini rivojlantirish hisoblanadi. 2024-yil 1-yanvar holatiga koʻra esa respublikamizda yiliga 32,8 mln tonna (2023-yil 1-yanvar holatiga nisbatan 6,6 mln tonna (125 foiz) oʻsish) sement ishlab chiqarish quvvatiga ega 37 ta korxonalar faoliyat koʻrsatmoqda. 2023-yilda sement ishlab chiqarish hajmi 2017-yildagiga nisbatan 74,1 foizga, aholi jon boshiga ishlab chiqarish esa 55,6 foizga oshgan. 2023-yilda Oʻzbekistonda 15,5 million tonna sement ishlab chiqarildi va aholi jon boshiga toʻgʻri keladigan sement miqdori 431 kg ga yetgan.

¹⁸ www.stat.uz maʼlumotlari asosida muallif ishlanmasi

3-jadval

**“O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi korxonalari tomonidan
2019-2023-yillarda ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar tarkibi
(mlrd.so‘m/ulushi%)¹⁹**

T/r	Ko‘rsatkichlar nomi	Yillar					2019-yilni 2023-yilga farqi (+; -)
		2019	2020	2021	2022	2023	
1	Qurilish materiallari, jami	16841,2	21890,7	23525,1	25187,4	29888,7	+13047,5
2	Bog‘lovchi materiallar (<i>sement, gips, ohak, quruq aralashmalar va boshqalar</i>)	7540	9850	10703,9	11687,0	14017,8	+13277,8
		44,8%	45,0%	45,5%	46,4%	46,9%	+2,1%
3	Bezatish materiallari (<i>keramik plita, linoleum, oboy (gulqog‘oz), lok-bo‘yoq materiallari va boshqalar</i>)	2490	3260	3552,3	3828,5	4573,0	2083
		14,8%	14,9%	15,1%	15,2%	15,3%	+0,5%
4	Tom yopqich materiallari (<i>shifer, yumshoq tom yopqichlar, cherepitsa va boshqalar</i>)	2100	2750	2988	3249	3856	+1756
		12,5%	12,6%	12,7%	12,9%	12,9%	+0,4%
5	Maxsus qurilish materiallari (<i>sanitar-texnik buyumlar, qurilish oynasi, polimerlar va boshqalar</i>)	580	760	846,9	906,7	1135,8	+555,8
		3,4%	3,5%	3,6%	3,6%	3,8%	+0,4%
6	Devorbop materiallar (<i>qurilish g‘isht, sendvich panel, gazoblok va boshqalar</i>)	2000	2620	2846,5	2770,6	2988,9	+988,9
		11,9%	12,0%	12,1%	11%	12,2%	+0,3%
7	Noruda qurilish materiallari (<i>qum, chaqiqtoq va boshqalar</i>)	540	620	658,70	730,43	896,66	+356,66
		3,2%	2,8%	2,8%	2,9%	3,3%	+0,1%
8	Boshqa qurilish materiallari	1591	2030	1929,06	2014,99	2420,98	+829,98
		9,4%	9,3%	8,2%	8%	8,1%	-1,3%

Uyushma tomonidan ishlab chiqarilayotgan qurilish materiallari hajmi barqaror o‘shish sur‘atini ko‘rsatib, 2023-yilda jami mahsulot hajmi 29888,7 mlrd.so‘mga yetdi. Tayyor mahsulotlar ichida bog‘lovchi materiallar, jumladan, sement ishlab chiqarish hajmi eng ko‘p ulushga (46,9%) ga ega hisoblanadi.

Dissertatsiya ishida korxonalarda innovatsion jarayonlarini boshqarishni o‘rganish maqsadida mamlakatimizdagi yigirmata yirik soliq to‘lovchilaridan biri bo‘lgan, “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi tarkibidagi “Ohangaronsement” AJ faoliyati tadqiq etilgan (4-jadval). Ushbu korxonada turli navli va markali sement (yuqori sifatli portlandsement, shlakportlandsement), asbest quvurlar, o‘tga chidamli g‘isht ishlab chiqariladi hamda bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi sement sanoatida ishlab chiqarish usuli bo‘yicha ikki xil: yiliga 2 million tonna quvvatga ega an’anaviy “ho‘l” usuldagi hamda yiliga 3 million tonna quvvatga ega yangi yuqori texnologiyali “quruq” usuldagi zavodga ega bo‘lgan noyob korxonalar hisoblanadi. Korxonaning bozor ulushi 2022-yil holatiga ko‘ra 11 foizni tashkil etadi. “Qizilqumsement” AJ 21 foiz bilan eng katta ulushga ega bo‘lsa, 10 foiz “Bekobodsement”, 6 foiz “Sherobod sement zavodi” va 4 foiz “Quvasoysement” korxonalari ulushiga to‘g‘ri keladi.

¹⁹ «O‘zsanoatqurilishmateriallari» uyushmasi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

“Ohangaronsement” AJning moliyaviy natijalari tahlili (mlrd.so‘m)²⁰

Ko‘rsatkichlar	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2019-yilni 2023-yilga farqi (+;-)
Mahsulot sotishdan olingan sof tushum	920,1	825,7	1012,2	909,5	1100,2	+180,1
Sotilgan mahsulot tannarxi	478	485,1	533,3	590	748,2	+270,2
Mahsulot sotishdan olingan yalpi foyda	441,8	340,6	478,9	319,5	352	-89,8
Davr xarajatlari, shu jumladan:	145,9	162,7	273,6	206,2	336,4	+190,5
Sotish xarajatlari	5,4	4,7	11,2	15,2	23,1	+17,7
Ma'muriy xarajatlar	14	11,5	19,3	41,5	94,2	+80,2
Boshqa operatsion xarajatlar	126,5	146,5	243,1	149,5	219,1	+92,6
Asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar	4,7	5,3	9	72,5	196	+191,3
Asosiy faoliyatdan olingan foyda	300,6	183,2	214,3	185,8	211,6	-89
Moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar	16,9	60,8	10	40	17,1	+0,2
Umumxo‘jalik faoliyatining moliyaviy natijasi	271,4	218	224	224,9	228,6	-42,8
Daromad solig‘i	55,7	38,2	55,1	29,3	29	-26,7
Hisobot davrining sof foydasi	215,7	179,8	168,9	195,6	199,6	-16,1

Yuqoridagi jadvalda “Ohangaronsement” AJning 2019-2023-yillardagi iqtisodiy ko‘rsatkichlari keltirilgan bo‘lib, oxirgi 5 yildagi tahlil natijalariga ko‘ra aksionerlik jamiyatida sotilgan mahsulot tannarxi, davr xarajatlari, ma'muriy xarajatlarning ortib borganini ko‘rishimiz mumkin. Buning asosiy sabablaridan biri 2021-yil boshida “Ohangaronsement” korxonasi negizida qurilish materiallari ishlab chiqarish bo‘yicha innovatsion sanoat klasteri tashkil etish yuzasidan amaliy ishlar boshlangan va uning asosiy loyihasi – “quruq” usulda sement ishlab chiqaruvchi yuqori texnologiyali yangi zavod ishga tushirilgan.

Dissertatsiya ishida qurilish materiallari sanoatida innovatsion jarayonlarga ta'sir etuvchi umumiy (ijobiy va salbiy) omillar, innovatsion jarayonlarni tezlashtiruvchi va sekinlashtiruvchi omillar tahlil qilingan hamda qurilish materiallari korxonalarini innovatsion rivojlanishining SWOT tahlili amalga oshirilgan.

Qurilish materiallari sanoati korxonalarining innovatsion faoliyatini boshqarish samaradorligi darajasini baholash uchun innovatsion faoliyat boshqaruvining samaradorlik ko‘rsatkichlari hamda ularning koeffitsent qiymatlari aniqlangan. Korxonaning innovatsiyalarni boshqarish samaradorligi koeffitsiyentini (K_{ef}) hisoblash formulasi quyidagi shaklga ega:

$$K_{ef} = 0,38 * S(A) + 0,05 * S(B) + 0,07 * S(C) + 0,19 * S(D) + 0,23 * S(E) + 0,15 * S(F)^{21}$$

²⁰ «Ohangaronsement» AJ ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

²¹ Muallif ishlanmasi

Bunda $S(A)$ korxonaning ilmiy-tadqiqot ishlariga sarflagan xarajatlari, $S(B)$ mehnat unumdorligi, $S(C)$ EBITDA korxonaning foizlar, soliqlar, amortizatsiya va amortizatsiyadan oldingi daromadlari, $S(D)$ ishlab chiqarish hajmi, $S(E)$ umumiy foydada innovatsion faoliyatni amalga oshirishdan olingan sof foyda ulushi, $S(F)$ amalga oshirilgan innovatsion loyihalar sonini bildiradi. Qurilish materiallari sanoatidagi korxonalarining innovatsion faoliyatini samarasiz boshqarishning asosiy sabablarini aniqlash bo'yicha taklif etilayotgan metodologiya asosida "Ohangaronement" aksiyadorlik jamiyatining innovatsion faoliyati samaradorligi baholandi (5-jadval).

5-jadval

"Ohangaronement" AJ innovatsion faoliyatining asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari (koeffitsiyent)²²

Yillar	$S(A)$	$S(B)$	$S(C)$	$S(D)$	$S(E)$	$S(F)$	Kef
2016	0,78	1,17	1,01	1,17	1,07	1,19	1,07
2017	1,13	1,00	1,38	0,98	1,09	1,33	1,21
2018	1,78	1,04	1,21	0,98	1,49	1,59	1,58
2019	1,89	1,08	1,05	0,99	1,72	1,84	1,71
2020	2,01	1,48	1,17	1,36	1,78	2,10	1,90
2021	2,34	1,73	1,54	1,61	1,92	2,21	2,16
2022	3,15	2,34	1,91	2,17	2,07	2,11	2,64
2023	3,25	2,15	1,75	1,93	2,26	1,90	2,65

5-jadvaldagi ma'lumotlar korxonaning innovatsion boshqaruvi samaradorligi koeffitsiyentining garchi sekin sur'atda bo'lsada, o'sish dinamikasini ko'rsatadi. Korxonaning ilmiy-tadqiqot ishlariga sarflagan xarajatlari oshib borishiga (3,25 marta) qaramay, amalga oshirilgan innovatsion loyihalar soni kamayib borganligini (1,90 marta) ko'rishimiz mumkin. Biroq 2023-yilda umumiy foydada innovatsion faoliyatni amalga oshirishdan olingan sof foyda ulushi (2,26 marta) ortib borgan. Taklif etilgan asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari tizimi korxonaning innovatsion faoliyati samaradorligiga ta'sir qiluvchi omillarning asosiy doirasini aks ettiradi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi "**Qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida innovatsion jarayonlarni boshqarishni takomillashtirish yo'llari**" deb nomlangan bo'lib, ushbu bobda korxonalar boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish asosida innovatsion jarayonlarni boshqarish imkoniyatlari, innovatsion jarayonlarini samarali boshqarishda xodimlar innovatsion faolligini oshirish yo'llari, qurilish materiallari korxonalar boshqaruvida innovatsion strategiyalar bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

²² «Ohangaronement» AJ moliyaviy hisobotlari asosida muallif ishlanmasi

O‘zbekistonda qurilish materiallari tarmog‘ida iqtisodiy islohotlarni yana ham chuqurlashtirish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, yangi korxonalar qurish va mavjudlarini modernizatsiyalash, jahon bozorida xaridorgir va raqobatdosh tayyor mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish va ularning turlarini ko‘paytirishga qaratilgan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-60-sonli farmonida “2022 – 2026-yillarda 5 mlrd AQSH dollarlik loyihalarini amalga oshirish orqali qurilish materiallari sohasini yanada rivojlantirish dasturini ishlab chiqish”²³ strategik vazifa sifatida belgilangan.


Shu jihatdan O‘zbekistonda qurilish materiallarini ishlab chiqarishni tashkil etishning klaster usuliga bosqichma-bosqich o‘tish, korxonalarining o‘zlariga qarashli xomashyo bazasini yaratish, xomashyo qazib olishda innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish va uni eksportga yo‘naltirilgan yuqori qo‘shilgan qiymatli tayyor mahsulot holiga keltirgunga qadar chuqur qayta ishlash, xalqaro bozorlarda chuqur marketing tadqiqotlarini olib borish orqali tarmoq korxonalarini innovatsion rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish va boshqaruv faoliyatini takomillashtirish borasida ilmiy tadqiqotlar olib borish taqozo etilmoqda.

